



Avtomobildan foydalanish va uni texnik qarov

Vakolatlangan dilerda Sizning avtomobilingizga texnik xizmat ko'rsatishni muntazam o'tkazib turing, chunki bu Sizning avtomobilingizning uzoq vaqt va buzilmay ishlashini ta'minlaydi.

Texnik xizmat ko'rsatishni ro'yxatga olish jurnali

Shuningdek, texnik xizmat ko'rsatish muntazam o'tkazilishini tasdiqlaydigan barcha hujjatlarni saqlash tavsiya etiladi. Kafolat Sizning avtomobilingizga yetarli texnik xizmat ko'rsatilmaganligi tufayli kelib chiqqan shikastlanishlari bo'yicha amal qilmaydi. Shuning uchun hujjatlar nosozlik yetarli texnik xizmat ko'rsatilmaganligi, materialning nuqsoni yoki ishlab chiqarish sifati tufayli kelib chiqqanmi, degan savol yuzaga kelsa, muhim dalil-isbot bo'lishi mumkin. Albatta hisobvaraqlarni saqlang - ular ishlarining bajarilganligining isboti hisoblanadi.

Ushbu kitobcha shuningdek, bajarilgan servis ishlarini yozib olish Sizga qulay bo'lishi uchun, texnik xizmat ko'rsatishni ro'yxatga olish jurnalining namunasini o'z ichiga oladi.

Davriy tekshirishlar va texnik xizmat ko'rsatish

Yuqori malakali mutaxassislar tomonidani bilan muntazam tekshirishlar va texnik xizmat ko'rsatish, Sizning avtomobilingizdan foydalanish maksimal samarali bo'lishi uchun asos bo'ladi. Servis kitobchasida ko'rsatilgan davriy tekshirishlar va texnik xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilishining oraliqlariga amal qilish, Sizning avtomobilingizdan ishonchli foydalanishni va optimal texnik xususiyatlarini ta'minlaydi.

Odometrda texnik xizmat ko'rsatish

Odometrni almashtirishda ta'mirlash sanasi, joriy o'tilgan yo'l va vakolatlangan diler muhri va vakili familiyasi kabi, unga tegishli axborotni qayd etish lozim.

Avtomobil egasining javobgarligi

Texnik xizmat ko'rsatish avtomobil egasining javobgarligiga kiradi. Sizning avtomobilingizga tegishli texnik xizmat ko'rsatish o'tkazilganligining isbotlarini saqlab qo'ying. Kafolat davri davomidagi materialning nuqsonlari yoki ishlab chiqarish sifati emas, texnik xizmat ko'rsatish yetarli emasligi tufayli kelib chiqqan da'volar kafolat majburiyatlari bilan qoplanmaydi. Servis ishlari vakolatlangan diler tomonidan, firmaviy ehtiyot qismlaridan foydalanib bajarilishi shart. Iltimos, Servis kitobchasida ko'rsatilgan texnik xizmat ko'rsatish, agar Sizning avtomobilingiz og'ir sharoitlarda, masalan, chang ko'p bo'lgan joylarda yoki o'ta yuqori yoki past haroratlar bo'lgan joylarda foydalanilsa, ko'rsatilganidan tezroq o'tkazilishi lozimligiga e'tibor bering. Bunday murakkab sharoitlarda Sizning avtomobilingizga har yonilg'i quyish paytida motor moyining sathini, shuningdek dvigatelning sovituvchi suyuqligi sathini va sovutish shamollatgichi tasmasining holatini nazorat qilish tavsiya etiladi. Batafsil axborotni Foydalanish qo'llanmasida topish mumkin. Reglamentga muvofiq o'tkaziladigan TXK xarajatlari avtomobil egasi tomonidan dilerning buyurtma-naryadiga asosan to'lanadi.

Kafolatdan keyingi ta'mirlash

Together let's drive™

Kafolat muddati tugaganidan keyin Sizning avtomobilingizda muammolar paydo bo'lgan holda, reglament xizmat ko'rsatishni, nosozliklar diagnostikasini va ta'mirlash ishlarini bajarish uchun vakolatlangan dilerga murojaat qilish tavsiya etiladi. Sizning vakolatlangan dileringiz Sizning manfaatingizni qondirish uchun Sizning avtomobilingiz haqidagi yetarli ma'lumotga ega.

YANGI AVTOMOBILGA KAFOLAT

Ishlab chiqaruvchi avtomobilning to'liq, uning barcha qismlari, tarkibiy qismlari va agregatlarining ishonchli ishlashini kafolatlaydi, shuningdek Ishlab chiqaruvchining aybi tufayli kafolat muddati mobaynida ishlamay qolsa, ularni bepul ta'mirlab beradi, agarda avtomobil egasi Avtomobildan foydalanish qo'llanmasida hamda Texnik xizmat ko'rsatish reglamentida ko'rsatib o'tilgan foydalanish va parvarishlar qoidalariga amal qilgan bo'lsa.

Kafolat majburiyatlari vakolatli dilerlar tomonidan amalga oshiriladi. Kafolat bo'yicha shikoyatlar ko'rib chiqilishi uchun darhol vakolatlangan dilerga xabar berilishi kerak. Dilerga avtomobil bilan birgalikda Servis kitobchasi (avtomobilni sotib birinchi ro'yxatga olgan vakolatlangan diler tomonidan to'ldirilgan, imzolangan va muhrlangan) taqdim qilinishi lozim.

Kafolat muddati davomida nosozliklarni bartaraf etish jarayonida, vakolatlangan diler avtomobilning soz holatini tiklaydi. Asosiy kafolat bo'yicha ta'mirlash ishi nosoz bo'lgan qismlarni ta'mirlash yoki almashtirish bilan cheklanadi.

Texnik nosoz bo'lgan avtomobildan foydalanish natijasida avtomobilning nosozligi yoki buzilishi bilan bog'liq bo'lgan barcha xavflar Avtomobilning egasiga yuklanadi.

Kafolat davrida texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bajarilganda, faqat vakolatlangan dilerlardan sotib olingan firmaviy, asl ehtiyot qismlaridan foydalanish lozim.

Kafolat ta'mirlashda o'rnatilgan detallarga, umuman yangi avtomobilga amal qilgan kabi, xuddi shunday kafolat amal qiladi (ya'ni, avtomobilning kafolati tugaganda, kafolat bo'yicha almashtirilgan detallarning kafolat muddati ham tugaydi), 6-bandida sanab o'tilgan komponentlar (asosiy agregatlar) bundan istisno. Bepul amashtirilgan detallar vakolatlangan dilerda qoladi.

Kafolat muayyan avtomobilga amal qiladi va shaxsan Avtomobilning egasi bilan bog'liq bo'lmaydi. Kafolat davri davomida avtomobilning yangi egasi xuddi shunday kafolat huquqiga ega bo'ladi. Avtomobil sotilganda Sotuvchi Servis kitobchasini Avtomobilning yangi egasiga berishi va Avtomobilning yangi egasining ma'lumotlarini Servis kitobchasiga kiritib, vakolatlangan dilerning muhrini qo'yishi lozim.

KAFOLAT SHARTLARI

1) "UzAuto MOTORS" AJ tomonidan ishlab chiqarilgan transport vositasining egasi kafolat muddati davomida Ishlab chiqaruvchi tomonidan yuzaga kelgan nuqsonli qismni, tarmoq yoki agregatlarni bepul ta'mirlatishga yoki almashtirishga haqlidir. Ishlab chiqaruvchining kafolati 36 oy yoki 100 000 km (eng avval qaysi biri bilan bog'liq bo'lsa) gacha amal qiladi. Kafolat, Servis kitobchasida va Avtomobildan foydalanish qo'llanmasida keltirilgan foydalanish va texnik xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya qilingan holda, avtomobilni birinchi Haridor tomonidan qabul qilingan sanadan boshlab amal qiladi.

Quyida sanab o'tilgan mashina tarkibiy qismlari uchun qisqa muddatli kafolat muddati belgilanadi:

- foydalanish masofasi 50 000 km dan oshmaganda, avtomobilni birinchi mijoz qabul qilgan kunidan boshlab 24 oydan ortiq bo'lmaganda, qaysi biri birinchi kelishiga qarab:
 1. podveska qismlarining sharovoy sharnirlari;
 2. rezina metalli sharnirlar (saylent bloklar);

Together let's drive™

3. dvigatel, transmissiya tayanchlari;
4. kardan sharnirlari (krestovinar).
- foydalanish masofasi 20 000 km dan oshmaganda, avtomobilni birinchi mijoz qabul qilgan kunidan boshlab 12 oydan ortiq bo'lmaganda, qaysi biri birinchi kelishiga qarab:
 1. oldi va orqa podveska amortizatorlari;
 2. isitish va konditsioner tizimining qismlari (12 oy davomida yurilgan masofadan qat'iy nazar);
 3. ishlangan gazlarni chiqarish tizimi qismlari (katalitik neytralizatoridan tashqari);
 4. barcha turdagi datchiklar, tormoz boshqaruv bloki moduli (ABS);
 5. barcha turdagi trosalar (to'xtab turish tormozi, ilashish muftasi, uzatmalarni o'zgartirish qutisi);
 6. oyna ko'targichlar, oyna tozalagichlar va ko'zgular mexanizmlari va yuritma elektro dvigatellari;
 7. kuzovning dekorativ qoplama qismlari (kuzov moldinglari, radiator panjarasi qoplamasi, turfa xildagi qoplamalar);
 8. alyumin quymalaridan tayyorlangan qismlarning lak-bo'yoq qoplamalari (tom yukxonasi shoxlari, ko'zgular, oynatozalagich dastaklari);
 9. yoqilg'i nasoslari, yoqilg'i sathi datchiklari va yoqilg'i va GBU tizimi forsunkalari (injektor);
 10. salon qoplamasi va ichki qoplama qismlari;
 11. audio qurilma;
 12. akkumulyator batareyalar, generator, starter;
 13. tebranish podshipniklari;
 14. teng burchak tezligi sharnirlari, orqa mo'stning yarim o'qi va differentsiali;
 15. rul reykalari va nakonechniklari.
16. Oldingi punktda ko'rsatilmagan va maxsus bo'lmagan boshqa barcha qismlar uchun (normal eskirish ta'sirida bo'lgan).
- transport vositasining tabiiy turdagi eskirish* ta'siriga moyil bo'lgan maxsus tarkibiy qismlari (tarmoqlari va agregatlari) bo'yicha avtomobilning birinchi haridorga topshirilgan kunidan ko'pi bilan 3 oy yoki 2500 km o'tilgan yo'l (qaysi biri avvalroq yuz berishiga qarab) kafolat muddati belgilanadi.
 1. barcha turdagi filtrlar;
 2. tormoz kolodkalari;
 3. tormoz disklari va barabanlari;
 4. ilashish muftasi disklari (friksiyaviy va savatli);
 5. o't oldirish svechalari va yuqori kuchlanish simlari;
 6. dvigatelning osma agregatlarining yuritma tasmalari;
 7. oynalar;
 8. oyna tozalagichlar cho'tkalari;
 9. cho'g'lanma lampalari (faralar, chiroqlar va plafonlar);
 10. saqlagichlar;
 11. o't oldirish kontaktlari;
 12. salniklar;
 13. naylar va chiqish naylari;
 14. rezina changlagichlar, g'iloflar va vtulkalar;
 15. old va orqa oynaning oyna yuvish moslamasi forsunkalari;
 16. dekorativ qalpoqlar va g'ildirak disklarining lak-bo'yoq qoplamasi;
 17. ishlangan gazlarning katalitik neytralizatori.

Together let's drive™

*** Tabiiy turdagi eskirish – atrof muhitning normal ta'siri yoki eskirish natijasida detal (tarmoq yoki agregat) yaroqliligining kamayishidir. Detal (tarmoq yoki agregat) eskirishi tezligi va xizmat qilish muddati, detaldan (tarmoq yoki agregatdan) foydalanish sharoitlariga va xususiyatlariga (yuklanishlar va ularning xususiyatlari, harorat va namligi, ekologik vaziyati va hokazo), shuningdek detal yasalgan materialiga, ushbu kitobchada va avtomobilning Foydalanish qo'llanmasida bayon etilgan avtomobildan foydalanish qoidalari va shartlariga o'z vaqtida va to'liq rioya qilinishiga bog'liq bo'ladi.**

2) Kuzov kafolati

Ishlab chiqaruvchi korxona 3 yillik kafolatni taqdim etadi, 3 yil davomida korroziya natijasida zararlangan kuzov elementlarini bepul ta'mirlab beradi, qachonki avtomobil normal sharoitlarda foydalanilgan bo'lsa, muntazam tekshiruvlar va texnik xizmat faqatgina Servis kitobchasida ko'rsatilgan muddatda amalga oshirilgan va ushbu ishlarning bajarilishi hujjatlashtirilgan bo'lsa, korroziya ishlab chiqarish kamchiliklari natijasi bo'lsa, ya'ni bu lak-bo'yoq qatlami ostida boshlanib zararlangan bo'lsa.

Ushbu kafolat ishlangan gazlarni chiqarish tizimi yuzasi, pol panellari va shassi qismlari yuzasining korroziv shikastlanish holatlariga taalluqli emas va avariya-dagi shikastlanish, tashqi shikastlanish, avtomobilga asl bo'lmagan ehtiyot qismlarining qo'yilishi yoki avtomobilga o'zgartirishlar kiritish tufayli boshlangan korroziya holatlarida kafolat amal qilmaydi. Aniqlangan har qanday korroziya darhol vakolatlangan diler-ga bildirilishi kerak. Ushbu kafolat, ko'rsatilgan shartlarning amal qilinmasligi tufayli bo'lgan ta'mirlash xarajatlarini qoplamaydi. Kuzovning lak-bo'yoq qoplami va korroziyaga qarshi qoplamaning tub qismi shikastning mavjud yoki mavjud emasligi ishlab chiqaruvchi tomonidan belgilangan usullar bo'yicha tekshirilishi kerak. Avtomobil egasiga shikast mavjudligi va ularni yo'q qilish choralari haqida xabar beriladi. Barcha aniqlangan shikastlar mavsumiy avtomobil tekshiruv vara-g'ida qayd qilinadi. Aniqlangan nosozliklar darhol vakolatlangan diler tomonidan ta'mirlanishi kerak. Kafolat muddati tugagandan so'ng, yillik texnik xizmatidan qat'iy nazar, vizual tekshiruvlarni amalga oshirish taklif etiladi. Korroziyadan himoya qilish uchun texnik ko'rik alohida xizmat haqi evaziga ko'rsatiladi. Tekshiruv natijalari mavsumiy tekshiruv varaqlarida, avtomobil bosib o'tgan masofa va tekshiruv sanasi ko'rsatilgan holda qayd qilinadi. Qaydlar tekshirishni amalga oshirgan diler-ni-ni-ni imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Ushbu imkoniyatdan foydalanib, kuzovning pastki qismida korroziya yuz berganda kafolat talablarini taqdim qilish bilan bog'liq muammolarni bartaraf qiling.

Avtomobil kuzovi elementlariga kafolat xizmati saqlanishi uchun vakolatlangan diler kamida 6 oyda bir marta avtomobilni tekshirishni amalga oshirishi shart. Diler tomonidan tekshiruv vaqtida aniqlangan kuzov nuqsonlarini bartaraf etishga haq to'lanadi.

3). Ishlab chiqaruvchining kafolatiga quyidagilar kirmaydi:

a) Yig'im yoki agregat qismlarida nosozlik yoki nuqson Ishlab chiqaruvchining aybi emas, balki quyidagi holatlar tufayli yuzaga kelgan bo'lsa:

- avariya-lar;
- foydalanish qo'llanmasi va Servis kitobchasi talablarini buzgan holda transport vositasidan foydalanish;
- texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash ishlarining oralig'i yoki hajmiga rioya qilmaslik;
- texnik xizmat ko'rsatish, qismlarning, yig'imlar yoki agregatlarning ta'mirlashi yoki almashtirishi vakolatlanmagan shaxs tomonidan bajarilishi;
- Ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilganlardan farq qiladigan yoqilg'i-moylash materiallaridan foydalanish;

Together let's drive™

- Avtomobilda ishlab chiqaruvchining texnik talablariga mos kelmaydigan (elektron qurilma dasturiy ta'minotini modifikatsiya qilish) har qanday tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish yoki zavod qismlari va mexanizmlarini almashtirish yoki unga qo'shimcha uskunalarni o'rnatish (agar nosozlik yuqorida ko'rsatilgan holatlar bilan bog'liq bo'lsa, kafolat yuqorida ko'rsatilgan harakatlardan ta'sirlangan avtomobil qismi uchun bekor qilinadi);
 - avtomobil poyga yoki sport musobaqalari uchun, yoki avtomobilni boshqarishga o'rgatish uchun ishlatilsa;
 - nosozlik tabiiy ofat yoki boshqa yengib bo'lmaydigan kuchdagi holatlar (fors-majior holatlari) oqibati bo'lsa;
 - avtomobilning identifikatsiyalash raqami (VIN) va/yoki dvigatel raqamini aniqlash mumkin emas, yoki ular Servis kitobchasida ko'rsatilgan raqamlarga mos kelmasa.
 - teshib o'tgan mexanik shikastlanish, tabiiy eskirish yoki tashqi mexanik va/yoki kimyoviy ta'sir tufayli shikastlanish. (Masalan, organik, hayvon yoki organik o'simlik kelib chiqishdagi materiallarning ta'sirida, yo'l shag'ali, qum, sanoat ifloslanishlari ta'sirida va hokazo.)
 - b) tozalash, yuvish, yonilg'i quyish, nazorat qilish va sozlash, o'rnatish kabi davriy xizmat ko'rsatish ro'yxatiga kiritilgan ishlarni bajarish;
 - c) Spidometrlari o'z ixtiyori bilan almashtirilgan (masofa o'lchagich) yoki haqiqiy kilometrini aniqlashning imkoni bo'lmagan transport vositalari;
 - d) qo'shimcha harajatlarni, shu jumladan avtomobildan foydalanish harajatlari va boshqa harajatlarni.
- 4) Sizning avtomobilingizga o'rnatilgan shinalarga faqat shinalar ishlab chiqaruvchining kafolat majburiyatlari amal qiladi.
- 5) Kafolat da'vosi huquqi 1-bandida ko'rsatilgan kafolat muddati tugaganidan keyin o'z kuchini yo'qotadi.
- Agar Avtomobilning egasi kafolat muddati davomida aniqlangan nosozlik haqida bildirgan bo'lsa, lekin bu nosozliklar kafolat muddatining oxirigacha bartaraf etilmagan bo'lsa, bildirilgan nosozliklar bo'yicha kafolat majburiyatlari avtomobilning asosiy kafolati muddati tugaganidan keyin 6 oydan oshmagan muddatga uzaytiriladi. Ko'rsatilgan muddatda kafolat reklamatsiyasini taqdim etish huquqini saqlab qolish uchun, diler "UzAuto MOTORS" AJ bilan muammoni hal etishning barcha mumkin bo'lgan yo'llarini ishlab chiqishi lozim. Muddati o'tganidan keyin, ushbu da'vo diler javobgarligiga o'tadi.
- 6) Kafolat majburiyatlari doirasida avtomobilning quyidagilar kabi asosiy agregatlari almashtirilganda:
- Dvigatel;
 - Uzatmalar qutisi.
- Almashtirilgan asosiy agregatlar uchun kafolat majburiyatlari butun yangi avtomobilning kafolat muddatining oxirigacha amal qiladi.
- 7) Vakolatlangan dilerlarning buyurtma-naryadlari kafolat davrida bajarilgan ta'mirlashni tasdiqlash uchun xizmat qiladi.
- Bu hujjatlar Servis kitobchasiga ilova qilinadi. Kafolat va oddiy ta'mirlashlar Servis kitobchasida aniq va to'liq qayd etilishi lozim.
- 8) Mazkur kafolat Avtomobil egasining iqtisodiy yo'qotishlarini va qo'shimcha xarajatlarini qoplash uchun amal qilmaydi. Bunday xarajatlar quyidagi bandlarni o'z ichiga oladi, lekin ular bilan cheklanmaydi:
- Vaqtincha foydalana olmaslik;
 - Avtomobildan foydalanish noqulayligini qoplash (shuningdek avtomobilni ijaraga olish xarajatlari);

Together let's drive™

- Avtomobilni saqlash xarajatlari;
- Vaqtni yoki foydani yo'qotganligini qoplash;
- Yashash, ovqatlanish xarajatlari va boshqa yo'l xarajatlari (evakuator xizmati).

DIQQAT! Biror-bir nosozliklar yoki nuqsonlar aniqlanganda, avtomobildan foydalanmang, Sizning avtomobilingizdan keyingi foydalanish yuzasidan maslahat olish uchun rasmiy diler bilan bog'laning.

Kundalik texnik xizmat ko'rsatishni e'tiborsiz qoldirmang, Siz sotib olgan avtomobilning ishonchliligi, uzoq xizmat qilish va buzilmasligi unga bog'liq bo'ladi.

Together let's drive™